UO‘K 94(575.1):902/904:39

ABU RAYHON BERUNIYNING “YODGORLIKLAR” ASARINING O‘RGANILISH TARIXI VA TADQIQ ETILISH DARAJASI

Abdurahim Qutbiddin o‘g‘li Xoldorov
https://doi.org/10.5281/zenodo.24367911

Maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining o‘rganilishi tahlil qilinadi. Asarning Sharq va G‘arb ilmiy muhitida o‘rganilishi, shuningdek keyingi tarixiy, xronologik, etnografik va lingvistik tadqiqotlar tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Abu Rayhon Beruniy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Beruniyshunoslik, etnologiya, taqvim, qo‘lyozma.

В статье анализируется изучение труда Абу Райхана аль-Бируни «Памятники минувших поколений». Рассматривается, как это сочинение исследовалось в восточных и западных научных кругах, а также его влияние на последующие исторические, хронологические, этнографические и лингвистические изыскания.
Ключевые слова: Абу Райхан Беруни, «Памятники минувших поколений», беруниеведение, этнология, календарь, рукопись.

KIRISH

O‘rta asr Sharq ilm-fani va madaniyati tarixida Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy alohida o‘rin tutadi. U Xorazm zaminida yetishib chiqqan qomusiy olim sifatida matematika, astronomiya, geografiya, tarix, xronologiya, mineralogiya, farmakologiya, etnografiya va boshqa ko‘plab fanlarning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Beruniyning ilmiy merosi o‘zining keng qamrovliligi, manbalarga tanqidiy munosabati, turli xalqlar va madaniyatlarni qiyosiy o‘rganishga intilishi bilan ajralib turadi.

Abu Rayhon Beruniy ijodida xalqlarning tarixi, urf-odatlari, diniy qarashlari, bayramlari, taqvimlari va vaqt hisoblash tizimlariga oid ma’lumotlar muhim o‘rin egallaydi. Olim turli xalqlarning madaniy va tarixiy merosini o‘rganishda mavjud manbalardan foydalanish bilan birga, ularni o‘zaro qiyoslash va imkon qadar xolis bayon etishga intilgan. Shu jihatdan uning asarlari nafaqat tabiiy va aniq fanlar, balki tarix, madaniyatshunoslik va etnologiya uchun ham muhim yozma manba hisoblanadi.

Beruniyning ana shunday fundamental asarlaridan biri arab tilida yozilgan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridir. Mazkur asar olimning ilk yirik ilmiy-tarixiy tadqiqotlaridan biri bo‘lib, unda qadimgi va o‘rta asrlarda yashagan turli xalqlarning taqvimlari, yil va oy hisoblari, bayramlari, diniy marosimlari, tarixiy sanalari hamda ayrim urf-odatlari haqida qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Beruniy bu haqida ushbu kitobida “Adiblardan biri bizdan turli xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shoxobchalari, ya’ni oylari va yillari xususida, u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va har xil yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba’zi-si amal qilib, ba’zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so‘radi va bizni imkon boricha ularni juda aniq bayon etib, o‘quvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan bir asar yozishga da’vat etdi” [1. B. 40] deb, yozish sababini izohlaydi.

Asarning ilmiy ahamiyati shundaki, Beruniy bir xalq yoki bir hudud tarixi bilan cheklanib qolmay, turli xalqlarning vaqt hisobi va madaniy an’analarini qiyosiy asosda tadqiq etgan. Asarning mazmuni va ilmiy yo‘nalishi uni tarix va xronologiya manbasi sifatida o‘rganish bilan

bir qatorda, xalqlarning etnik-madaniy xususiyatlarini tadqiq etishda ham muhim manba sifatida qarash imkonini beradi.

Ayniqsa, asarda Xorazm, Sug‘d, Eron, yunonlar, yahudiylar, nasroniylar, arablar va boshqa xalqlarning taqvim hamda bayramlariga doir ma’lumotlarning keltirilishi Beruniyning turli xalqlar madaniyatiga bo‘lgan ilmiy yondashuvini namoyon etadi. Shu sababli asarning ilmiy merosini o‘rganish masalasi uzoq davrdan buyon sharqshunoslar, tarixchilar, xronologiya va manbashunoslik mutaxassislari e’tiborida bo‘lib kelmoqda.

Asarning qo‘lyozmalari, nashrlari, tarjimalari va ilmiy tadqiqotlarda yoritilishi uning jahon ilmiy merosidagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada asarning o‘rganilish darajasi, asar yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, tarjima va nashrlar hamda uning tarixiy-etnologik manba sifatidagi ahamiyatini o‘rganish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Asar milodiy 1000-yilda yozilgan bo‘lib, Beruniy uni 27 yoshida yaratgan. U asarini Jurjon hukmdori Shams al-Maoliy Qobus ibn Vashmgirga bag‘ishlanganini aytadi[1. B. 40]. Asarda qadimgi xalqlarning yil hisobi, oy va kunlari, bayramlari, diniy marosimlari, hukmdorlari, tarixiy voqealari va astronomik qarashlari haqida keng ma’lumot berilgan.

Asarning ilmiy qimmati uning faqat xronologiyaga oid ma’lumotlarni jamlaganligida emas. Beruniy turli xalqlarning vaqt va taqvim tizimlarini qiyoslash bilan birga, ularning urf-odatlari, diniy qarashlari, bayramlari va tarixiy xotirasiga oid ma’lumotlarni ham qayd etgan. Shu sababli asar tarix, xronologiya, astronomiya, etnografiya, dinshunoslik, tilshunoslik va manbashunoslik uchun birdek muhim manbadir. Bugungi kunga kelib asar ko‘plab mamlakatlarda turli yo‘nalishlarda tadqiq qilingan.

MATERIAL VA USULLAR

1. Birinchidan, asarning turkiy xalqlar etnologiyasi uchun manba sifatidagi ahamiyati alohida monografik tadqiqot darajasida to‘liq ochib berilmagan. Sababi, asardagi turkiy xalqlarga oid ma’lumotlar turli mavzular bo‘yicha tarqoq holda kelgan.
2. Ikkinchidan, Beruniy keltirgan turkiy ma’lumotlar: taqvim, oy nomlari, muchal, yil hisobi, urf-odat, diniy tasavvurlar, xo‘jalik va moddiy madaniyat masalalari tizimli ravishda tasniflanmagan.
3. Uchinchidan, Beruniy ma’lumotlarini Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, qadimgi turkiy bitiklar, Xitoy yilnomalari, arxeologik materiallar va keyingi tarixiy manbalar bilan kompleks qiyoslash masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi.
4. To‘rtinchidan, asardagi etnologik ma’lumotlarning bir qismi taqvimiy ma’lumotlar ichida tarqoq holda kelganligi sababli, ularni alohida ajratib olish va tizimlashtirish zarur.
5. Beshinchidan, Beruniyning turkiy xalqlarni boshqa xalqlar bilan qiyoslash usuli hali alohida metodologik muammo sifatida yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Bunda tadqiqotning qiyoslash, etnologik tahlil, semiotik tahlil usullaridan **foydalanildi**.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tadqiqot natijalari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarining ilmiy o‘rganilishi bir necha bosqichda shakllanganini ko‘rsatdi. Dastlab asar sharq ilmiy an’anasida Beruniy merosining muhim qismi sifatida foydalanilgan bo‘lsa, XIX asrdan boshlab Yevropa sharqshunosligi doirasida uning matni, qo ‘lyozmalari va mazmun ini ilmiy ravishda organish kuchaydi.

Tahlil natijasida E. Zaxau tomonidan Asarning arabcha matni nashr etlishi va ingliz tiliga tarjima qilinishiuning Garb ilmiy muhitida keng tanilishiga muhim zamin yaratgan aniqlandi. Keyingi davrda K.G. Zaleman K.Garbers, J. Fuk va boshqa sharqshunoslarning faoliyati qo‘lyozmalarni aniqlash, matn variantlarini qiyoslash va nashrda mavjud ayrim kamchiliklarni

to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Bu jarayon asarni faqat tarjima asosida emas, balki uning qo‘lyozma matn va arabcha matn an’anasi asosida o‘rganish zarurligini bildirganligi aniqlandi.

Rossiya va sovet sharqshunosligi doirasidagi tadqiqotlar natijasida asarning tarixiy, xrono;ogik va etnografik mazmuni yanada kengroq ilmiy muomalaga kiritildi. M.A. Sal’e tomonidan amalga oshirilgan tarjima asarning tarixchilar, sharqshunoslar, astronomlar va xronologlar tomonidan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

S.P. Tolstov tadqiqotlarida esa Beruniy ma’lumotlarining Xorazm va markaziy osiyo tarixini o‘rganishdagi imkoniyatlari arxeologok materiallar bilan bog‘liq holda tahlil qilindi.

P.G. Bulgakovning ishlari Beruniy merosining turli fanlar doirasida o‘rganilish tarixini umum lashtirishga xizmat qildi.

O‘zbekistonda asarning ilmiy o‘rganilishida A. Rasulovning tarjimasi va 1968-yilda “Tanlangan asarlar” turkumining I jildida o‘zbek tilida nashr etilishi muhim bosqich sifatida belgilandi. Ushbu nashr Beruniy matnining o‘zbek ilmiy muhitida kengroq qo‘llanilishiga, tarix, xronologiya, astronomiya va etnologiya yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilishiga imkon yaratdi.

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili asarning tadqiqot doirasi tarix va xronologiya bilan cheklanib qolmaganini ko‘rsatdi. Undagi astronomik, etnografik, lingvistik va onomastik materiallar ham alohida ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda. Shu bilan birga mavjud tadqiqotlarda asarning turkey xalqlar etnologiyasiga oid ma’lumotlari tarqoq holda tahlil qilingani aniqlandi. Taqvim, oy va yil hisobi, urf –odatlar, diniy qarashlar, xo‘jalik va moddiy madaniyatga oid ma’lumotlarni yagona tizim asosida tasniflash hamda ularni yozma va arxeologik manbalar bilan kompleks qiyoslash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Natijada, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ni o‘rganish tarixida matnshunoslikdan fanlararo tadqiqotlargacha bo‘lgan uzviy rivojlanish kuzatilish, ayni paytda asarning turkiy xalqlar etnologiyasi uchun muhim manba sifatidagiimkoniyatlari alohida kompleks tadqiqot uchun muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolayotganligi aniqlandi.

Birinchi bosqich — Sharq ilmiy an’anasi

Bu davrda asar Sharq ilmiy muhitida mavjud bo‘lib, Beruniy merosining boshqa asarlari bilan birgalikda foydalanilgan. Asar Beruniy hayotligidayoq uning ilmiy merosining muhim qismiga aylangan. Asarning o‘ziga xosligi shundaki, unda muallif turli xalqlarning ma’lumotlarini bir-biridan ajratibgina qolmay, ularni o‘zaro taqqoslaydi.

Asarning mazmuni keyingi musulmon olimlari uchun ham muhim manba bo‘lgan. Beruniy o‘zining boshqa asarlarida ham xronologik va astronomik masalalarga murojaat qilgan. Keyingi davr olimlari uning ilmiy merosidan foydalanganlar. O‘zbekistondagi ilmiy manbalarda, xususan, Beruniy merosining keyingi olimlarga ta’siri qayd etiladi.

Ikkinchi bosqich — Yevropa sharqshunosligi

XIX asrning ikkinchi yarmida “Yodgorliklar”ning zamonaviy ilmiy o‘rganishida nemis sharqshunosi Eduard Zaxau (C. Eduard Sachau) alohida o‘rin egallaydi. U asarni ilmiy nashr va tarjima orqali G‘arb ilmiy muhitiga olib kirdi. Zaxau 1878-yilda asarning arabcha matnini Leyspigda ilmiy nashr sifatida chop ettirdi[3]. 1879-yilda esa uning inglizcha tarjimasi — “The Chronology of Ancient Nations” nomi bilan nashr qilindi[4]. Uning ushbu nashrlari asarni Yevropa ilmiy jamoatchiligiga keng tanishtirdi[3,4]. Zaxau nashrining ahamiyati bir necha jihatdan katta: asarning arabcha matni ilmiy muomalaga kiritildi; G‘arb olimlari Beruniy matnini bevosita o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar; asarning xronologik mazmuni Yevropa ilmiy an’analariga olib kirildi; keyingi tarjima va tadqiqotlar uchun asos yaratildi.

Zaxau tarjimasining mundarijasining o‘zi ham asarning qamrovini ko‘rsatadi. Unda kun va tun mohiyati, oylar, eralarning bir-biridan kelib chiqishi, davrlar, tarixiy sanalar, soxta payg‘ambarlar eralari, forslar bayramlari, arablarning bayramlari, xristian va boshqa xalqlarning marosimlari kabi masalalar alohida boblarda berilgan.

Shunday qilib, Zaxau davridan boshlab asar faqat Sharq tarixining manbasi emas, balki jahon xronologiyasi bo‘yicha muhim ilmiy manba sifatida tadqiq etila boshlandi.

Qo‘lyozmalar va matnshunoslik tadqiqotlari

Asarning ilmiy o‘rganilishida qo‘lyozmalarni aniqlash va qiyoslash alohida bosqichni tashkil etadi. David Pingree ma’lumotlariga ko‘ra, asarning kamida o‘n bitta qo‘lyozmasi ma’lum. Asarning qo‘lyozma an’anasi, nusxalar o‘rtasidagi farqlar va matn tarixini aniqlash keyingi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan bo‘lgan.

XX asrda Karl Garbers va Y. Fück kabi olimlar Zaxau nashridagi ayrim tushib qolgan yoki muammoli qismlarni aniqlab, ularni to‘ldirishga harakat qilganlar. Garbers 1952-yilda Zaxau nashriga qo‘shimcha materiallar e’lon qilgan, Fück esa “Sechs Ergänzungen” nomli tadqiqotida asarning ayrim qismlarini to‘ldirgan.

Bu tadqiqotlar juda muhim, chunki Beruniy asarini o‘rganishda tarjima bilangina kifoyalanish yetarli emas; avvalo qo‘lyozmalar va arabcha matnning o‘zini tekshirish zarur.

Uchinchi bosqich — Rossiya va Sovet sharqshunosligi

Rossiya sharqshunosligida ham asarga katta e’tibor qaratilgan. XX asr boshlarida asarning yangi qo‘lyozma materiallari aniqlana boshlandi. Sankt-Peterburgdagi ilmiy muassasalarga kelib tushgan qo‘lyozmalar olimlar tomonidan o‘rganildi.

K. G. Zaleman Istanbul qo‘lyozmasi bilan bog‘liq materiallarni ilmiy muomalaga kiritishda muhim ishlarni amalga oshirdi. I. Yu. Krachkovskiy ham Beruniy merosiga katta e’tibor bergan olimlardan biridir. U asarning ayrim qismlarini rus tiliga tarjima qilgan va Beruniy ilmiy merosining Yaqin va O‘rta Sharq ilmiy tafakkuridagi o‘rnini yuqori baholagan. Krachkovskiyning bahosi asarning mazmunini tushunish uchun muhim: u “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”ni Yaqin Sharq ilmiy adabiyotidagi nihoyatda yirik asarlardan biri sifatida baholagan.

Asarning ilmiy tadqiq etilishida M. A. Sal’ening xizmatlari alohida o‘rin tutadi. U 1957-yilda asarni rus tiliga tarjima qilib Toshkentda nashr qildirdi[2]. Tarjimaga ilmiy izohlar ham berilgan. Chunki asar rus tilida kengroq ilmiy muomalaga kirib, tarixchilar, sharqshunoslar, astronomlar va xronologlar uchun foydalanish imkoniyati kengaydi. Ushbu tarjimada Zaxau nashridan tashqari, Leningrad va Istanbul qo‘lyozmalaridan foydalanilgan. 1957-yilgi ruscha nashr keyinchalik O‘zbekistondagi Beruniy tadqiqotlari uchun ham muhim manbalardan biriga aylandi.

S. P. Tolstov asarning tarixiy ahamiyatini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Tolstov Beruniy asarining Xorazm va umuman Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishdagi ahamiyatini yuqori baholagan. U asarni nafaqat xronologik asar, balki xalqlarning xo‘jalik hayoti, urf-odatlari, marosimlari va e’tiqodlari haqida ma’lumot beruvchi o‘ziga xos qomus sifatida talqin qilgan.

Tolstovning yondashuvida asarning mazmuni sof xronologiyadan tarixiy-etnografik manba darajasiga ko‘tariladi. Tolstov tadqiqotlarining yana bir muhim tomoni — Beruniy ma’lumotlarini arxeologik materiallar bilan bog‘lashdir. Natijada Beruniy asaridagi yozma ma’lumotlar Xorazm arxeologiyasi bilan birgalikda ko‘rib chiqila boshlandi.

Sovet davridagi Beruniyshunoslikning muhim vakillaridan yana biri P. G. Bulgakovdir. Bulgakov Beruniy hayoti va ilmiy merosiga bagishlangan asar yozadi[8]. Bu asarida Beruniy merosining turli fan yo‘nalishlarida o‘rganilganini umumlashtirib E. Wiedemann, I. Helle, A. Belenitskiy, I. Krachkovskiy, S. Tolstov, V. Minorskiy, A. Arends, S. Azimjonova, H. Hasanov, K. Shoniyozov va boshqa tadqiqotchilarning xizmatlarini alohida qayd etgan.

Bu ro‘yxat asarning birgina tarixchilar tomonidan emas, turli fan vakillari tomonidan o‘rganilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Bulgakov davridagi tadqiqotlar asarning astronom Rasulovning faoliyati muhim o‘rin tutadi. 1950-yilda A. Rasulov asarning bir qismini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik 1968-yilda Beruniyning “Tanlangan asarlar” turkumining I jildida asarning to‘liq o‘zbekcha tarjim Chunki u bilan Beruniy matnini o‘zbek ilmiy muhitiga keng olib kirdi; tarixchilar uchun foydalanish imkonini kengaytirdi; taqvim va xronologiya masalalarini o‘zbek tilida tadqiq etishga zamin yaratdi; Beruniy asaridagi etnografik materiallardan foydalanish imkoniniganishda H. Hasanovning xizmatlari katta. U Beruniy ilmiy

merosidagi astronomiya, geografiya va vaqt hisobiga oid ma’lumotlarni tadqiq etgan olimlar qatorigaardagi Quyosh yili, Oy hisobi, tengkunlik, kabisa, taqvim, vaqt birliklari kabi masalalarni tushunishda muhimik, matematik va tabiiy-ilmiy jihatlariga ham katta e’tibor qaratgan.

To‘rtinchi bosqich — O‘zbekistonda Beruniyshunoslik

O‘zbekistonda asarni ilmiy o‘rganish tarixida A. Rasulovning faoliyati muhim o‘rin tutadi. 1950-yilda A. Rasulov asarning bir qismini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Keyinchalik 1968-yilda Beruniyning “Tanlangan asarlar” turkumining I jildida asarning to‘liq o‘zbekcha tarjimasi nashr etildi[1]. A.Rasulovning tarjimasi va o‘zbekcha nashr asarning O‘zbekiston ilmiy muhitida keng o‘rganilishiga zamin yaratdi.

Uning o‘zbek tilida nashr qildirilishi o‘zbek Beruniyshunosligi uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki u bilan Beruniy matnini o‘zbek ilmiy muhitiga keng olib kirdi; tarixchilar uchun foydalanish imkonini kengaytirdi; taqvim va xronologiya masalalarini o‘zbek tilida tadqiq etishga zamin yaratdi; Beruniy asaridagi etnografik materiallardan foydalanish imkonini berdi. Mazkur nashr bugungi kunda ham asarni o‘zbek tilida o‘rganishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Beshinchi bosqich — Fanlararo zamonaviy tadqiqotlar

Bugungi tadqiqotlarda asar xronologiya bilangina cheklanmay, tarix, etnologiya, lingvistika, onomastika, madaniyatshunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda. Xususan, Beruniy merosining astronomik va geografik jihatlarini o‘rganishda H. Hasanovning xizmatlari katta. U Beruniy ilmiy merosidagi astronomiya, geografiya va vaqt hisobiga oid ma’lumotlarni tadqiq etgan olimlar qatoriga kiradi. Uning tadqiqotlari Beruniy qarashlarini zamonaviy astronomiya va tarixiy fanlar bilan bog‘lashga xizmat qildi. Bu yo‘nalish asardagi Quyosh yili, Oy hisobi, tengkunlik, kabisa, taqvim, vaqt birliklari kabi masalalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Keyingi o‘zbek tadqiqotlarida Sh. Vohidov kabi olimlar Beruniy merosining zamonaviy fan uchun ahamiyatini tahlil qilganlar. “Beruniy merosi va zamonaviy fan” nomli asar ham bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning davomidir. Bu bosqichda asosiy e’tibor Beruniy asarlarining alohida fanlar uchun manba sifatidagi ahamiyatini aniqlashga qaratildi.

Asarning til va tarixiy onomastika uchun manba sifatidagi imkoniyatlari ham alohida tadqiq qilingan. Oygul Abdirashidovna Mirzaxmedova 2023-yilda asardagi ayrim tarixiy antroponimlarning leksik-semantik tahliliga bag‘ishlangan maqola e’lon qilgan. Unda asarda uchraydigan tarixiy shaxs nomlari, u onomastik birliklarning tarixiy-lisoniy tadqiqi” nomli avtoreferati qayd etilgan. Tadqiqotning maqsadi asarda qo‘llangan onomastik birliklarni tarixiy-lisoniy jihatdan o‘rganishdan iborat. Bu yo‘nalish ham asarning hali to‘liq o‘zlashtirilmagan qatlamlari mavjudligini ko‘rsatadi

2026-yilda esa uning “Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi onomastik birliklarning tarixiy-lisoniy tadqiqi” nomli avtoreferati qayd etilgan. Tadqiqotning maqsadi asarda qo‘llangan onomastik birliklarni tarixiy-lisoniy jihatdan o‘rganishdan iborat. Bu yo‘nalish ham asarning hali to‘liq o‘zlashtirilmagan qatlamlari mavjudligini ko‘rsatadi.

So‘nggi xalqaro tadqiqotlar orasida François de Bloisning 2024-yilda chop etilgan “From Choresmia to Cathay: A New Look at al-Biruni’s Chronology”[8] maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif asarning murakkab matn tarixini o‘rganib, mavjud qo‘lyozmalar asosida qo‘lyozmalar o‘rtasidagi qarindoshlik va matnning tarqalish shajarasini tiklashga urinadi.

Tarixiy-etnologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar

So‘nggi yillarda asarga nisbatan tarixiy-etnografik qiziqish ham kuchaygan. 2024-yilda Aziza Saparbayeva tomonidan “Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asari ahamiyati” nomli maqola e’lon qilingan. Unda asarning tarixiy, etnografik, lingvistik jihatlari hamda Xorazm, xronologiya va tarixiy dunyoqarash bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Shuningdek, Mehribon Sapayevaning “The Traditions and Cultural Life of Ancient Peoples in the Work ‘Osor al-Baqiya” nomli maqola ham e’lon qilingan bo‘lib, uning tadqiqotida asardagi qadimgi xalqlarning urf-odatlari, madaniy hayoti, diniy qarashlari va marosimlariga e’tibor qaratilgan. Bu tadqiqotlar asarning etnologik salohiyati alohida ilmiy yo‘nalish sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi.

Mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida asar bo‘yicha quyidagi jihatlar yetarli darajada tizimlashtirilmaganini ko‘rish mumkin.

- Birinchidan, asarning turkiy xalqlar etnologiyasi uchun manba sifatidagi ahamiyati alohida monografik tadqiqot darajasida to‘liq ochib berilmagan. Sababi, asardagi turkiy xalqlarga oid ma’lumotlar turli mavzular bo‘yicha tarqoq holda kelgan.
- Ikkinchidan, Beruniy keltirgan turkiy ma’lumotlar: taqvim, oy nomlari, muchal, yil hisobi, urf-odat, diniy tasavvurlar, xo‘jalik va moddiy madaniyat masalalari tizimli ravishda tasniflanmagan.
- Uchinchidan, Beruniy ma’lumotlarini Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, qadimgi turkiy bitiklar, Xitoy yilnomalari, arxeologik materiallar va keyingi tarixiy manbalar bilan kompleks qiyoslash masalasi alohida tadqiqotni talab qiladi.
- To‘rtinchidan, asardagi etnologik ma’lumotlarning bir qismi taqvimiy ma’lumotlar ichida tarqoq holda kelganligi sababli, ularni alohida ajratib olish va tizimlashtirish zarur.
- Beshinchidan, Beruniyning turkiy xalqlarni boshqa xalqlar bilan qiyoslash usuli hali alohida metodologik muammo sifatida yetarlicha tadqiq qilinmagan.

XULOSA

“ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar ”ning o‘rganilish tarixini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, asar qariyb bir yarim asrdan ortiq vaqt davomida turli ilmiy maktablar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda.

XIX asrda E. Zaxau tomonidan amalga oshirilgan arabcha matn nashri va inglizcha tarjima asarning Yevropa ilmiy muhitiga kirib kelishida hal qiluvchi bosqich bo‘ldi. Keyinchalik K. G. Zaleman, I. Yu. Krachkovskiy, K. Garbers, J. Fück kabi sharqshunoslar qo‘lyozma va matnshunoslik masalalariga e’tibor qaratdilar.

M. A. Sal’e asarni rus tiliga tarjima qilib, uning sobiq Sovet ilmiy muhitida keng tarqalishiga katta hissa qo‘shdi. S. P. Tolstov esa asarning Xorazm va Markaziy Osiyo tarixiy-etnografiyasini o‘rganishdagi ahamiyatini alohida ko‘rsatdi. P. G. Bulgakov va boshqa Beruniyshunoslar asarning turli fanlar bo‘yicha o‘rganilish tarixini rivojlantirdilar.

O‘zbekistonda A. Rasulov tarjimasi va 1968-yilgi nashr alohida ilmiy bosqichni tashkil etadi. Keyingi tadqiqotlarda asarning tarixiy, xronologik, astronomik, etnografik va lingvistik jihatlari o‘rganildi. So‘nggi yillarda O. Mirzaxmedova kabi tadqiqotchilar asardagi onomastik birliklarni, zamonaviy tadqiqotchilar esa asarning tarixiy-etnografik mazmunini o‘rganmoqdalar.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili “ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar ”ning turkiy xalqlar etnologiyasiga oid ma’lumotlarini yagona tizim asosida, kompleks tarixiy-etnologik va manbashunoslik yondashuvi bilan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda Beruniy ma’lumotlarini boshqa yozma va arxeologik manbalar bilan qiyoslash, turkiy xalqlarga oid ma’lumotlarni tematik jihatdan tasniflash va ularning tarixiy-etnologik qiymatini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida asarni o‘rganish hali to ‘liq tugamaganini, hatto asarning matnshunoslik jihatlari bo‘yicha ham yangi ilmiy natijalarga erishish mumkinligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, asarning turkiy xalqlar etnologiyasi uchun manba sifatidagi imkoniyatlari hali to‘liq ochib berilmagan deb baholash mumkin. “ Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar ” asosan xronologiya, astronomiya, tarix, Xorazm tarixi, tilshunoslik va umumiy etnografiya nuqtayi nazaridan o‘rganilgan; turkiy xalqlarning etnologik xususiyatlarini asarning barcha qismlaridan tizimli ravishda ajratib, boshqa manbalar bilan kompleks qiyoslash esa alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Райҳон Беруний Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. // Танланган асарлар. I том. – Тошкент: Фан, 1968. – 488 б.
2. `Sachau C.E. Chronologie orientalischer Völker von Alberuniy. Leipzig, 1878. – 378 б.
3. Sachau C.E. The Chronology of Ancient Nations.. – London: W. H. Allen and Co, 1879. – 464 p.
4. Булгаков П. Г. Жизнь и труды Беруни. – Ташкент: Фан, 1972. – 428 б.
5. Pingri D. Osor al-Boqiya // Encyclopaedia Iranica. – J. II. – B. – 909 p.
6. Pingri D. Abu Rayhon Biruniy. VI. Tarix va xronologiya // Encyclopaedia Iranica. – 2000. – J. IV, № 3. – B.–283 p.
7. De Blua F. “From Choresmia to Cathay: A New Look at al-Biruni’s Chronology”// The Medieval History Journal. – 2024. – J. 27, № 1. – P. 173–193.
8. Халидов А. Б. Дополнения к тексту “Хронологии” ал-Бируни по Ленинградской и Стамбульской рукописям // Палестинский сборник. – 1959. – № 4 (67). – С. 147-171.
9. Ирисов А. Бируний ва Ҳиндистон. – Тошкент, 1963. – 388 б.
10. Ирисов А. Абурайҳон Беруний. – Тошкент, 1960. – 478 б.
11. Мирзахмедова О. А. Абу Райҳон Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асаридаги айрим тарихий антропонимларнинг лексик-семантик таҳлили. – 2023.
12. Мирзахмедова О. А. Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асаридаги ономастик бирликларнинг тарихий-лисоний тадқиқи. – 2026. – 267 б.
13. Сапарбаева А. Абу Райҳон Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асарининг аҳамияти. – 2024. – 178 б.
14. Sapayeva M. «The Traditions and Cultural Life of Ancient Peoples in the Work “Osor al-Baqiya”». – 2024. – 488 b.
15. Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва: Издательство Московского университета, 1948. – 398 б.